DINAMIK SAHIFALARNI LOYIHALASHTIRISH

R.K.Atamuratov,
pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

“DINAMIK SAHIFALARNI LOYIHALASHTIRISH” FANI VAQT TAQSIMOTI

Fan/modul kodi DSL2406	Fan/modul turi Tanlov	Ta’lim tili o‘zbek	Ishlab chiqilgan o‘quv yili 2024/2025

Semestr	Har bir semestrdagi fan/modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O‘quv mashg‘ulotlari (soat)					Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
				Jami:	Ma’ruza	Amaliy	Laboratoriya	Seminar		
4	Dinamik sahifalarni loyihalashtirish	6	6	90	20	40	30	-	90	180
	Jami:	6	6	90	20	40	30	-	90	180

“DINAMIK SAHIFALARNI LOYIHALASHTIRISH” FANINI O‘QITISHDAN MAQSAD

“Dinamik sahifalarni loyihalashtirish” fanini Noshirlik yo‘nalishida o‘qitishdan asosiy maqsad – zamonaviy raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan davrda talabalarga veb-sahifalar va interaktiv onlayn kontent yaratishda keng qo‘llaniladigan dasturlash asoslarini o‘rgatish orqali ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish. Ushbu fan noshirlik sohasi vakillarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, elektron nashrlar, veb-jurnallar, multimedia materiallari va raqamli kontentni ishlab chiqish, tahrirlash hamda ularni foydalanuvchiga qulay tarzda taqdim etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

FANNI O‘QITISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR

“Dinamik sahifalarni loyihalashtirish” fanini o‘qitish natijasida Noshirlik yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar quyidagi nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kutiladi:

1. JavaScript dasturlash tilining asosiy tushunchalarini egallash – o‘zgaruvchilar, operatorlar, funksiyalar, massivlar, shartli operatorlar, sikllar va hodisalar bilan ishlash kabi asosiy elementlarni amalda qo‘llay olish.

2.Veb-sahifalar interaktivligini ta’minlash – HTML va CSS bilan integratsiyada JavaScript kodlari yordamida foydalanuvchi bilan o‘zaro muloqotni tashkil eta olish, shakllar, tugmalar, menyular kabi elementlarni boshqarish.

3. Raqamli nashrlar va onlayn platformalar uchun dinamik kontent yaratish – elektron jurnallar, bloglar, veb-kitoblar kabi raqamli nashrlar muhitida dasturlash orqali mazmun va dizayn uyg‘unligini ta’minlay olish.

4. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va algoritmik fikrlashni shakllantirish – muayyan masalani yechish uchun mantiqiy algoritmlar tuzish va ularni JavaScript yordamida amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lish.

5. Raqamli kommunikatsiya vositalari bilan samarali ishlash – foydalanuvchi tajribasini (UX) hisobga olgan holda funksional va vizual jihatdan qulay interfeyslar yaratish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.

6. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik – raqamli nashrlar, veb-tahririyatlar va internet-nashriyotlarda ishlash uchun zarur bo‘lgan zamonaviy texnologik bilimlarga ega bo‘lish.

“DINAMIK SAHIFALARNI LOYIHALASHTIRISH” FANINI O‘QITISH BO‘YICHA TA’LIM NATIJALARI

Ushbu fan bo‘yicha o‘quv jarayoni yakunida talabalar quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kutiladi:

Bilimlar:

1. JavaScript dasturlash tilining asosiy tushunchalari (o‘zgaruvchilar, ma’lumot turlari, operatorlar, funksiyalar, sikllar, shartli ifodalar) haqida nazariy bilimlarga ega bo‘ladi.
2. Veb-sahifalarni interaktiv qilish uchun JavaScriptning roli va funksiyasini tushunadi.
3. HTML va CSS bilan JavaScriptning o‘zaro bog‘liqligi va ular orqali qanday qilib kompleks veb-loyihalar yaratilishini biladi.
4. Elektron nashrlar va raqamli noshirlikda dasturlash vositalarining ahamiyati haqida tasavvur hosil qiladi.

“DINAMIK SAHIFALARNI LOYIHALASHTIRISH” FANINI O‘QITISH BO‘YICHA TA’LIM NATIJALARI

Ko‘nikmalar:

1. JavaScript yordamida oddiy interaktiv veb-sahifalarni yaratish va tahrirlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.
2. Shakllar, menyular, tugmalar va boshqa foydalanuvchi interfeysi elementlarini boshqarish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni bajaradi.
3. Veb-kontentga dinamiklik qo‘shish (masalan, matnlarni avtomatik yangilash, foydalanuvchi harakatlariga javob berish) ko‘nikmalarini egallaydi.
4. Raqamli kontent ishlab chiqarishda kod yozish va uni test qilish amaliyotini o‘zlashtiradi.

“DINAMIK SAHIFALARNI LOYIHALASHTIRISH” FANINI O‘QITISH BO‘YICHA TA’LIM NATIJALARI

Malakalar:

1. Mustaqil tarzda kichik JavaScript loyihalarini yaratish va ularni veb-sahifaga qo‘shish malakasiga ega bo‘ladi.
2. Algoritmik fikrlash va muammoni kod orqali yechish malakalarini rivojlantiradi.
3. Raqamli noshirlik faoliyatida interaktiv vositalarni qo‘llash orqali foydalanuvchi tajribasini yaxshilash bo‘yicha qarorlar qabul qilishga tayyor bo‘ladi.
4. Kasbiy faoliyatda dasturlash vositalaridan foydalanish orqali zamonaviy nashrlar bilan ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi.



MA’RUZA MASHG‘ULOTLARI MAVZULARI

Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M) (4-semestr)		20
M1	JavaScript va uning imkoniyatlari	2
M2	O‘zgaruvchilar va konstantalar	2
M3	JavaScriptda ma’lumot tiplari	2
M4	Shart operatorlari	2
M5	Sikllar	2
M6	Massivlar	2
M7	Funksiyalar	2
M8	Satrlar bilan ishlash	2
M9	JSda hodisalar	2
M10	Formalar bilan ishlash	2

AMALIY MASHG‘ULOTLARI MAVZULARI

Mashg‘ulotlar shakli: amaliy mashg‘ulot (A) (4-semestr)		40
A1	JavaScript dasturida ishlash	2
A2	O‘zgaruvchilar va konstantalar	2
A3	O‘zgaruvchilar ustida amallar	2
A4	if shart operatori	2
A5	switch shart operatori	2
A6	while sikli bilan ishlash	2
A7	for sikli bilan ishlash	2
A8	Massivlar	2
A9	Massiv metodlari	2
A10	Funksiyalar bilan ishlash	2
A11	Obyektlar	2
A12	Date, Math, Array va Number obyektlari	2
A13	Satrlar bilan ishlash	2
A14	Satr metodlari	2
A15	Xatoliklar bilan ishlash	2
A16	Throw operatori bilan ishlash	2
A17	Brauzer bilan ishlash. BOM va DOM	2
A18	JSda hodisalar	4
A19	Formalar bilan ishlash	2

LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

Mashg‘ulotlar shakli: laboratoriya mashg‘ulot (L) (4-semestr)		30
L1	O‘zgaruvchilar va konstantalar	2
L2	O‘zgaruvchilar ustida amallar	2
L3	if shart operatori	2
L4	switch shart operatori	2
L5	while sikli bilan ishlash	2
L6	for sikli bilan ishlash	2
L7	Massivlar bilan ishlash	2
L8	Funksiyalar bilan ishlash	2
L9	Obyektlar bilan ishlash	2
L10	Date, Math, Array va Number obyektlari	2
L11	Satrlar bilan ishlash	2
L12	Xatoliklar bilan ishlash	2
L13	Brauzer bilan ishlash. BOM va DOM	2
L14	JSda hodisalar	2
L15	Formalar bilan ishlash	2

MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI

Mustaqil ta’lim (MT) (4-semestr)			soat
T/r	Mustaqil ta’lim mavzulari	Mustaqil ta’limni tashkil etish shakllari va turlari	90
1	Web 2.0 texnologiyasi	Web 2.0 texnologiyasi haqida ma’lumotlar o‘zlashtiriladi	6
2	JSON bilan ishlash	JSON bilan ishlash haqida ma’lumotlar o‘zlashtiriladi	6
3	JSda ma’lumotlarni saqlash	JSda ma’lumotlarni saqlash haqida ma’lumotlar o‘zlashtiriladi	6
4	Iteratorlar bilan ishlash	Iteratorlar bilan ishlash haqida ma’lumotlar o‘zlashtiriladi	6
5	Node obyekti	Node obyekti haqida ma’lumotlar o‘zlashtiriladi	6
6	Event obyekti	Event obyekti haqida ma’lumotlar o‘zlashtiriladi	6
7	Document Object model	Document Object model haqida ma’lumotlar o‘zlashtiriladi	6
8	Element obyekti	Element obyekti haqida ma’lumotlar o‘zlashtiriladi	6
9	Sichqoncha hodisasi	Sichqoncha hodisasi haqida ma’lumotlar o‘zlashtiriladi	6
10	Keyboard hodisasi	Keyboard hodisasi haqida ma’lumotlar o‘zlashtiriladi	6
11	JSda matnli maydon	JSda matnli maydon haqida ma’lumotlar o‘zlashtiriladi	6
12	JSda select ro‘yxati	JSda select ro‘yxati haqida ma’lumotlar o‘zlashtiriladi	6
13	JSda BOM	JSda BOM haqida ma’lumotlar o‘zlashtiriladi	6
14	CSSda JS	CSSda JS haqida ma’lumotlar o‘zlashtiriladi	6
15	AJAX so‘rovlari	AJAX so‘rovlari haqida ma’lumotlar o‘zlashtiriladi	6

TALABALARNING KREDITLARNI OLISH TARTIBI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan “OTMlarda o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida Nizom”ning 15- va 30-bandlariga asosan Dinamik sahifalarni loyihalashtirish fanidan 120 soat *o‘quv yuklamasini o‘zlashtirgan*, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko‘ra *ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan* talabaga 6 kredit beriladi.

Talaba belgilangan *ta’lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda* kreditlar berilmaydi.

Talabalarning bilimini baholash O‘zbekiton Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

TALABALARNING BILIMINI BAHOLASH MEZONLARI

- 5 (a’lo) baho: talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda;
- 4 (yaxshi) baho: talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda;
- 3 (qoniqarli) baho: talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda;
- 2 (qoniqarsiz) baho talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda qoniqarsiz baholanadi.

NAZORATLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

Oraliq nazorat: o‘tilgan mavzular asosida test shaklda o‘tkaziladi.

Namunalar

O‘zgaruvchilardan qaysi belgi tayinlash operatori ham deyiladi?
a) teng belgisi
b) teng emas belgisi
c) chiziqcha
d) pastki chiziq

Const kalit so‘zi JSda qanday vazifani bajaradi?
a) o‘zgaruvchilarning qiymatini o‘zgarmas holatga olib keladi
b) o‘zgaruvchilar qiymatini o‘zgartiradi
c) o‘zgaruvchiga qiymat beradi
d) o‘zgaruvchilarni nomlaydi

NAZORATLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

Yakuniy nazorat: o‘tilgan mavzular asosida test shaklda o‘tkaziladi.

Namunalar

JavaScriptda nechta ma’lumotlar tipi mavjud?
a) 5 ta
b) 7 ta
c) 10 ta
d) 9 ta

if…else bu qanday operator?
a) shart operatori
b) tanlash operatori
c) takrorlash operatori
d) tekshirish operatori

FANNI O‘QITISH JARAYONIDA FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar	
1	Кириченко А. В. JavaScript для FrontEnd-разработчиков. Написание. Тестирование. Развертывание. – СПб.: Наука и Техника, 2020. – 320 с.
2	Государев, И. Б. Введение в веб-разработку на языке JavaScript: учебное пособие / И. Б. Государев. — Санкт-Петербург: Лань, 2019. – 144 с.
Qo‘shimcha adabiyotlar	
1	Флэнаган Д. JavaScript. Подробное руководство. – Пер. с англ. – СПб: Символ. Плюс, 2008. – 992 с.
2	Ник Морган. JavaScript для детей. Самоучитель по программированию. – Москва: Манн, Иванов и Фербер, 2016. – 288 с.
3	Rasul Atamuratov. Web dizayn. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: BOOKMANY PRINT, 2024. – 116 bet.
Internet manbalari	
1	https://metanit.com/web/JavaScript/15.1.php
2	https://developer.mozilla.org/ru/docs/Learn/JavaScript/First_steps
3	https://itproger.com/course/JavaScript
4	http://code.mu/ru/JavaScript/book/prime/
5	https://www.youtube.com/channel/UCAXy1AxlCqxlPfelvZwFz8A

FAN O‘QITUVCHISI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

R.K.Atamuratov,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

rasul_atamuratov@mail.ru

Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalari kafedrasi

E’TIBORINGIZ UCHUN TASHAKKUR!